

ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

O'SIMLIKSHUNOSLIK KAFEDRASI

**«O'SIMLIKSHUNOSLIK» FANIDAN
KURS ISHI YOZISH UCHUN**

USLUBIY KO'RSATMA

(Agronomiya fakultetining kunduzgi bo'lim talabalari uchun)



Andijon 2011 yil

Tuzuvchilar: dotsent,

S.Tursunov

I.Usmonov

Taqrizchilar:

«Dexqonchilik va ekologiya» kafedrası mudiri
q.x.f.n.**S.Baxromov**

«O'simlikshunoslik» kafedrası katta o'qituvchisi
Z.Jumaboyev

Ko'rsatma institut uslubiy kengash tomonidan 2011 yil (Bayon №___) da ko'rib chiqilgan va Agronomiya fakulteti talabalariga tavsiya etilgan.

KIRISH

O'simlikshunoslik fanidan kurs ishi talabalar tomonidan 4 kursni tugatish oldidan bajariladi. Kurs ishini mavzusi talabalar tomonidan 4 kurs uchun muammoli ma'ruzalar davrida xar bir talabani xoxishiga ko'ra tanlab olinadi va xo'jalik tuproq-iqlim sharoitida u yoki bu (tanlab olingan) ekin uchun uni biologik xususiyatlarini bilgan xolda shu ekindan rejalashtirilgan xosil uchun intensiv texnologiya asosida agrotexnik tadbir ishlab chiqishdan iborat bo'lib xisoblanadi.

Ishni bajarishdan asosiy maqsad shundan iboratki:

1. Talabalarni O'simlikshunoslikdan va boshqa fanlardan olgan nazariy bilimlarini kengaytirish va mustaxkamlash.
2. Talabalarni ishlab chiqarishdagi amaliy kuzatishlarini adabiyotlar ma'lumotlari bilan taqqoslab xo'jalik uchun zarur va ilg'or texnologiyani o'rganish bilan birga uni xo'jalikka tadbir etish.
3. Talabalarni mustaqil adabiyotlar bilan qishloq xo'jalik ekinlaridan planlashtirilgan xosilni eng ilg'or texnologiya asosida o'stirish texnologik kartasini tuzishni o'rganish.
4. Talaba faqatgina o'kuv qo'llanmasidangina mustaqil ishlashni emas, balki monografiyalar, to'plamlar, davriy nashriyotlar, spravochnik va dissertatsiyalardan foydalana bilish.

Kurs ishini bajarishda talaba o'zini ilmiy kuzatishdan olgan ma'lumotlarini o'simlik biologiyasi va ma'lum xo'jalik faktlari muxiti nuqtai nazaridan ijobiy xarakterda ishlab chiqadi. Ishni bajarishda o'kituvchisidan maslaxat oladi.

Kurs ishini yozilishi

Kurs ishini yozish uchun talaba oldingi kurslarda Dexqonchilik Agroximiya, Melioratsiya, O'simliklarni ximiyaviy ximoya qilish kabi fanlardan kurs ishlari asosida va ularni ma'lumotlariga bog'langan xolda, xamda o'zlari ishlaydigan xo'jaliklarini ekinlar strukturasi va xo'jalikda muxim o'rinni egallaydigan ekinlar asosida mavzu tanlab oladi.

Talaba tanlab olgan xo'jalikda olinayotgan xosildorlik va shu xosilni yetishtirishga sarflanayotgan o'rtacha mineral o'g'itlar NPK miqdori asosida rejalashtirilgan xosil uchun ilmiy asoslangan ozuqa rejimini xisoblab topishi kerak va tuproqni unumdorligini xisobga olgan xolda o'zi olgan ekinga ilg'or texnologiya asosida agrotexnik tadbir tuzadi.

Kurs ishi mazmunli adabiyotlar obzoriga xulosalar bilan yaxshi ravon o'qiladigan jadvallar, grafiklar va boshqa materiallar bilan boyitilgan xolda bajarilishi kerak.

Kurs ishi ximoya qilinadi.

Kurs ishi quyidagi asosiy qismlarni o'z ichiga oladi:

Xo'jalikni tuprog'i, iqlimi xaqidagi ma'lumotlar va ekinlar strukturasi.

Adabiyotlar sharxi (tanlab olingan ekinni biologik xususiyati, naviga xarakteristika va x.k).

Rejalashtirilgan xosil olishni mo'ljallagan xolda xo'jalik sharoitida qo'llanilayotgan yoki qo'llanishga tavsiya etilayotgan texnologiyani (texnologik kartasi bilan) bayon qilish.

Kurs ishini yozishda quyidagilarga e'tibor berish kerak: ish qo'lda standart varaq (210x310)ga tepadan va pastdan 20 mm, o'ng tomondan 10 mm, chap tomonidan 30 mm qoldirib yozilishi kerak. Jadvallar to'g'ri tuzilishi va talaba analiz qilib berilishi kerak. YUqorida esa jadval nomlari so'ngra uning nomi yozilishi kerak. Jadval nomi qisqa va mazmunini yoritib bera olishi kerak.

Rasm va diagramma (sxema)lar xam nomerlanishi va nomlanishi kerak, so'ngra barcha betlar nomerlanib muqovalanadi.

Ish hajmi mashina yozuvida 20-25 betni tashkil etishi kerak. Kurs ishi o'simlikshunoslik fanidan imtixonogacha ximoya qilinib baxolanadi.

Kurs ishi quyidagi topshiriq asosida yoziladi.

1.Kirish.

2.Xo'jalikni tabiiy iqlim, tuproq sharoitlari o'rganilayotgan ekinni o'stirilish xolati, ekinlar strukturasiidagi o'rni va x.k.

3.Adabiyotlar sharxi.

3.1.Ekinni biologik xususiyatlari (issiqqa,yorug'likka, suvga, tuproqqa talabi).

3.2. Ekinni o'stirish texnologiyasini xususiyatlari.

4.Rejalashtirilgan xosil olish uchun ekinga o'g'it balansini tuzish va uni xisoblash.

5.Xo'jalik sharoitida ekindan rejalashtirilgan xosil olish uchun agrotexnik tadbir va tavsiyalar (texnologik kartasi bilan).

6. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Talaba kurs ishini yozish uchun quyidagi mavzuda xo'jaligi yo'nalishiga mos bo'lganini tanlab oladi.

Kurs ishi mavzulari.

1. Sug'oriladigan sharoitda kuzgi bug'doyni intensiv texnologiya asosida o'stirish.
2. Ko'chat qalinligini kuzgi bug'doy xosildorligiga ta'siri.
3. O'g'itlar me'yorini kuzgi bug'doy xosildorligiga ta'siri.
4. Xar geklardan 80 tsentnerdan kuzgi bug'doy xosili olishni rejalashtirish.
5. Kuzgi bug'doyni rejalashtirib xosili olishda o'g'it xisoblash.
6. Tur preparatini g'alla ekinlarini o'sishi rivojlanishi va xosildorligiga ta'siri.
7. Kuzgi bug'doy xosildorligiga organik va mineral o'g'itlarni ta'siri.

8. Kuzgi bug'doy xosildorligiga mikroelementlarni ta'siri.
9. Kuzgi arpani sug'oriladigan sharoitda don uchun o'stirish texnologiyasi.
10. Makkajxorini don uchun o'stirish texnologiyasi.
11. Makkajo'xoridan xar gektaridan 100 tsentnerdan don xosili olish uchun o'stirish xususiyatlari.
12. Makkajo'xorini boshqa ekinlar bilan aralashtirib ekishni xususiyatlari.
13. Makkajo'xorini silos uchun o'stirish texnologiyasi.
14. Makkajo'xorini yangi duragaylarini solishtirib o'rganish.
15. Ekish sxemalarini makkajo'xori xosildorligiga ta'siri.
16. Makkajo'xoridan rejalashtirilgan xosil olishda o'g'itlar me'yorini don xosiliga ta'siri.
17. Oqjo'xorini don va silos uchun o'stirish texnologiyasi.
18. Oqjo'xorini boshqa ekinlarga qo'shib o'stirish texnologiyasi.
19. Lavlagidan rejalashtirilgan xosil olish uchun o'g'it me'yorlarini xisoblash va uni samaradorligi.
20. Lavlagini yem-xashak ekini sifatida o'stirish texnologiyasi.
21. Sug'oriladigan sharoitda soya o'stirish texnologiyasi.
22. YUqori oqsilli yem-xashak yetishtirishda dukkakli-don o'simliklarini roli va o'stirish texnologiyasi.
23. Qishloq xo'jaligida oraliq ekinlardan foydalanish va o'stirish texnologiyasi.
24. Raps va xantalni oraliq ekin sifatida o'stirish texnologiyasi.
25. Kuzgi javdarni yem-xashak yetishtirish uchun o'stirish texnologiyasi.
26. Kuzgi arpani yem-xashak uchun o'stirish texnologiyasi.
27. Ekish sxemasini kartoshka xosildorligiga ta'siri.
28. Xar xil qalinlikda o'stirishni kartoshka xosildorligiga ta'siri.
29. Maxalliy navlarni o'stirishni kartoshka xosildorligiga ta'siri.
30. Ertaki kartoshka o'stirish texnologiyasi.
31. Kechki kartoshka o'stirish texnologiyasi.
32. Turli xil kattalikda ekish materialini kartoshka xosiliga ta'siri.
33. Organik va mineral o'g'itlarni birgalikda qo'llashni kartoshka xosildorligiga ta'siri.
34. Bedani pichan uchun o'stirish texnologiyasi.
35. Bedani urug' olish uchun o'stirish texnologiyasi.
36. SHoli xosildorligiga mineral o'g'itlarni ta'siri.
37. Ekish muddatini sholi xosildorligiga ta'siri.
38. SHoli o'simligiga gerbitsitlarni ta'siri.
39. SHoli xosiliga ko'chat qalinligini ta'siri.
40. Sudan o'tini yangi navlaridan mo'l xosil olish texnologiyasi.
41. Ekish sxemalari va ko'chat qalinligini tamaki xosildorligiga ta'siri.
42. Tamaki xosildorligiga mineral o'g'itlarni ta'siri.
43. Urug'likka turli xil usullar bilan ishlov berishni qishloq xo'jalik ekinlari xosildorligiga ta'siri.
44. Perko o'simligini oraliq ekin sifatida o'stirish texnologiyasi.
45. Xar xil ekinlarni bedaga qo'shib ekishni samaradorligi.

46. Mosh o'simligini ang'izga ekib o'stirish xususiyatlari va o'stirish texnologiyasi.
47. Oqjo'xori yetishtirish texnologiyasi.
48. Bir daladan 2-3 marta xosil olish texnologiyasi.
49. Ekish sxemalarini xashaki lavlagi xosildorligiga ta'siri.
50. Kunjut o'simligini o'stirish texnologiyasi.
51. Kanop o'stirish texnologiyasi.
52. Tamakini yangi navlarini xosildorlik ko'rsatkichlari bo'yicha o'rganish.
53. Kuzgi arpani don uchun o'stirish texnologiyasi.
54. Kuzgi javdarni don uchun o'stirish texnologiyasi.
55. Eski bedalarni parvarishlab maxsuldorligini oshirish texnologiyasi.
56. Bedani keng qatorlab o'stirishning urug' xosiliga ta'siri.
57. Sug'oriladigan sharoitda yer-yong'oq o'stirish texnologiyasi.
58. Kungaboqarni makkajo'xori bilan qo'shib o'stirishni silos xosiliga ta'siri.
59. Ekish muddatlarini beda ko'chat qalinligi va xosildorligiga ta'siri.
60. Rapsni urug' uchun o'stirish texnologiyasi.

ESLATMA: Agarda bitta mavzuni ikki yoki undan ortiq talaba olgan bo'lsa, xar bir talaba o'z xo'jaligi sharoitida mavzuni yoritib beradi.

1-Ilova: Rejalashtirilgan xosil uchun o'g'it me'yorlarini xisoblash, ts/ga

№	Ko'rsatkichlar	Ozuqa elementlar		
		N	P	K
1	Rejalashtirilgan xosilni 1ts asosiy maxsulot bilan olib chiqib ketiladigan ozuqa moddalari, kg.			
2.	Turoqda bor bo'lgan ozuqa elementlar, 100 gr da mg xisobida.			
3.	Tuproqdagi ozuqa moddalardan foydalanish koefitsenti,%			
4.	O'simlikni tuproqdan oladigan ozuqa moddalar miqdori, kg/ga.			
5.	1 t. go'ngdagi ozuqa elementlari miqdori, kg.			
6.	Go'ng bilan solinadigan ozuqa elementlari,kg/ga.			
7.	Solingan yili go'ngdan foydalanish koefitsenti, %.			
8.	O'simlikni go'ndagi oladigan ozuqa elementlar miqdori, kg/ga.			
9.	Mineral o'g'itlar bilan solish talab qilinadigan elementlar miqdori, kg/ga.			
10	Its o'g'itdagi ozuqa elementlar,kg/ga			
11	O'g'itlardagi ozuqa elementlardan foydalanish koefitsenti,%			
12	Solinishi kerak bo'lgan mineral o'g'itlar miqdori, ts/ga (mineral o'g'itlar shakli ko'rsatiladi).			

2-Ilova: Rejalashtirilgan xosil olish uchun o'g'itlar normasi quyidagicha xisoblanadi:

Azot normasi $H_N=(U_p*N_n*K_b*K_3)*K_1$ kg/ga

Bu yerda U_p – planlashtirilayotgan xosil, ts/ga.

N_n -1 tsentner xosil uchun azot sarfi normasi, kg.

K_b - tuproq tipi boniteti bo'yicha tuzatish koefitsenti.

K_3 - sho'rlanish bo'yicha tuzatish koefitsenti.

K_p -o'tmishdosh ekinlar bo'yicha tuzatish koefitsenti.

Fosfor normasi. $Nr_{205}=(U_p*N_f)*K_3$ kg/ga.

Bu yerda U_p -planlashtirilayotgan xosil.

N_f -1 ts xosil uchun fosfor sarflash normasi kg/ga.

K_3 -tuproq tarkibidagi xarakatchan fosfor bo'yicha tuzatish koefitsenti.

Kaliy normasi. $N_{k20}=(U_p*N_k)*K_3$ kg/ga.

Bu yerda U_p -planlashtirilgan xosil.

N_k -1 ts xosil uchun kaliy sarflash normasi, kg.

K_3 -tuproq tarkibidagi xarakatchan kaliy bo'yicha tuzatish koefitsenti.

3-Ilova: Kurs ishida o'rganilayotgan ekin uchun agrotexnik tadbirlar sistemasi quyidagi ko'rinishda tuziladi.

_____ o'simligini o'stirish uchun agrotexnik tadbirlar sistemasi.

Navi _____

Tuprog'i _____

O'tmishdoshi _____

Bajariladigan ishlar turlari (o'tmishdosh yig'ishtirilib olishi bilan boshlanadi)	Ishni bajarish-ga bo'lgan agro-texnik talablar (xaydash chuqur-ligi, o'g'it nor-malari, ekish normalari, usul-lari va x.k).	Qishloq xo'ja-lik mashina va qurollari	Ishni baja-rishni kalen-dar muddati (kun xisobid).

4-Ilova: Kurs ishi muqovasi quyidagicha yozilishi kerak.

**ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI.
O'SIMLIKSHUNOSLIK KAFEDRASI
O'SIMLIKSHUNOSLIK
fanidan**

KURS ISHI

Mavzu: _____

Bajaruvchi: Agronomiya fakultetining ___ kurs ___ gruppasi
talabasi _____

Ishni tekshirdi: _____

« _____ » _____ 200__ yil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston prezidenti I.A.Karimovning va Respublika Vazirlar maxkamasining q/xo'jaligini rivojlantirish to'g'risidagi ko'rsatma va farmoishlar.
2. X.N.Otaboyeva va boshqalar. O'simlikshunoslik. Toshkent «Mexnat» 2000 yil.
3. P.P.Vavilov «O'simlikshunoslik» Toshkent «Mexnat» 1980 y
4. P.P.Vavilov i dr..Rasteniyevodstva M. «Kolos» 1986 g.
5. O.Mirzaev va boshqalar. O'simlikshunoslikdan ma'ruzalar matni. Andijon 2002 yil.
6. O.Mirzaev., S.Tursunov. Urug'shunoslik (O'simlikshunoslik) dan o'kuv qo'llanma.
7. A.X.Mamadaliyev.,O.Mirzaev. Ekinlar xosilini programmalashtirish. O'kuv qo'llanma. Andijon 1996 yil.
8. V.P.CHirkov. O'simlikshunoslikdan praktikum. «Toshkent». 1976 yil.
9. D.YOrmatova. Dala ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. Toshkent 2000.
10. D.YOrmatova Dala ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasidan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent.2000 yil.

